

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.M.Zokirova	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
I.T.Xojaliyev	
Tasvir nutq tipining modal aspketi.....	1319
M.A.Usmanova	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
R.N.Umarova, O.U.Xolmatova	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati	1328
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
A.I.Saminov	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
G.Z.Rozikova	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar	1346
N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova	
Allegory as a research object of linguistics	1351
E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili	1354
U.I.Nosirova	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi	1360
Sh.R.Mo'ydinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
Y.I.Karimov	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini	1369
G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili	1373
D.M.Ismoilova	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari	1378
G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar	1388
E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi	1392
Sh.M.Iskandarova	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar	1397
X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi	1401
Z.A.Akbarova	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	1406
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
O.Q.Abbozov	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
I.T.Axmadjonov	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
M.T.Abdupattoyev	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish	1422
A.Mamajonov, O.Q.Abbozov	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
M.T.Abdupattoyev	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 811.512.133.37

DINIY MOTIVLI TOPONIMLAR

РЕЛИГИОЗНО МОТИВИРОВАННЫЕ ТОПОНИМЫ

RELIGIOUSLY MOTIVATED TOPONYMS

Abbozov Oxunjon Qayumjonovich

Farg'ona davlat universiteti Tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada Farg'ona viloyati So'x tumani diniy motivli toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Toponimlarning leksik-semantik tahlili tilshunoslik, tarix, etnografiya, madaniyatshunoslik va geografiya sohalaridagi ko'plab masalalarini hal etishda muhim vosita bo'lib, bir qator qimmatli ma'lumotlar va ilmiy dalillar olish imkonini beradi. Xususan, So'x tumani diniy motivli toponimlarini alohida tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda, So'x tumanidagi Mug'tepa, Hazrati Ali, Imomota, Duldul oti, Dul'ota, Mulbut, Bo'jay, Rovut, Sangi aro's, Sangi navishta, Oluchamazor, Shahi kuro'la, Qulfi zanjirkusho, Mazori Er-hubbi, Yigit Pirim, Sariq Ota, Havzi moron, Havzi kelinchak, Chashmai So'x, Toshmazor, Kichirimazor, Hazrati Xuro'son, hazrati Bobo, Mazori Kenja, Xo'jai Kalon, Xo'jai Kabudpush, Xo'jai Tush, Xo'jai Murodbaxsh, Xo'jai Rushnoi, Xo'jai Xor, Xo'jai Abulqosim, Xo'jai Orifi Mohi Tobon, Mazori Childuxtaron, Oluchamazor, Tulbibi, Hurbibi, G'oz (G'az), Pidirgon, So'x, Xonaqoh, Xidirmon, Obishir, O'rda, Simodon, Buzurgon kabi toponimlarning leksik-semantik xususiyatlari tahlilga tortildi. Bu nomlarning tarixiy manbalar asosida, ularni o'zaro qiyoslab o'rganish bu zaminda yashirin bo'lgan juda ko'p sirlarning ochilishida kalit bo'ladi.

O'zbek tili leksikologiyasining tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammolaridan biri toponimlarning lug'aviy-ma'naviy o'ziga xosliklarini o'rganish hamda mavzuiy jihatdan tasnif qilish hisoblanadi.

Аннотация

В статье анализируются лексико-семантические особенности религиозно мотивированных топонимов Сохского района Ферганской области. Лексико-семантический анализ топонимов является важным инструментом решения многих задач в области языкознания, истории, этнографии, культурологии и географии, позволяет получить ряд ценных сведений и научных доказательств. В частности, важно отдельно исследовать религиозно мотивированные топонимы Сохского района. Для этого Mug'tepa, Hazrat Ali, Imomota, Dul'ota, Duldul oti, Mulbut, Butjay, Rovut, Sangi arus, Sangi navishta, Oluchamazor, Shahi kurula, Kulfi zankirkusho, Mazori Erhubbi, Yigit Pirim, Sariq Ota, Havzi Moron, Havzi Kelinchak, Chashmai Sox, Toshmazor, Kichirimazor, Hazrat Xuruson, Hazrat Bobo, Mazori Kenja, Khojai Kalon, Khojai Kabudpush, Khojai Tush, Khojai Murodbahsh, Khojai Rushnoi, Khojai Xor, Khojai Abulqosim, Khojai Orifi Mohi Tobon, Mazori Childukhtaron, Oluchamazor, Tulbibi, Hurbibi, G'oz проанализированы лексико-семантические особенности таких топонимов, как Pidirgon, Sox, Xonaqoh, Xidirmon, Obishir, Orda, Simodon, Buzurgon. Изучение этих имен на основе исторических источников и сравнение их друг с другом станет ключом к раскрытию многих тайн, скрытых на этой земле.

Одной из проблем лексикологии узбекского языка, требующей исследования, является изучение лексико-духовных характеристик топонимов и их тематическая классификация.

Abstract

The article analyzes the lexical-semantic features of religiously motivated toponyms of Sokh district of Fergana region. The lexical-semantic analysis of toponyms is an important tool for solving many problems in the fields of linguistics, history, ethnography, cultural studies and geography, and allows obtaining a number of valuable information and scientific evidence. In particular, it is important to separately research religiously motivated toponyms of the Sokh district. For this purpose, Mug'tepa, Hazrat Ali, Imomota, Dul'ota, Duldul oti, Mulbut, Bojay, Rovut, Sangi arus, Sangi navishta, Oluchamazor, Shahi kurula, Kulfi zankirkusho, Mazori Erhubbi, Yigit Pirim, Sariq Ota, Havzi Moron, Havzi Kelinchak, Chashmai Sokh, Toshmazor, Kichirimazor, Hazrat Khurusan, Hazrat Bobo, Mazori Kenja, Khojai Kalon, Khojai Kabudpush, Khojai Tush, Khojai Murodbahsh, Khojai Rushnoi, Khojai Xor, Khojai Abulqosim, Khojai Orifi Mohi Tobon, Mazori Childukhtaron, Oluchamazor, Tulbibi, Hurbibi, G'oz lexical-semantic features of toponyms such as Pidirgon, Sokh, Xonaqoh, Xidirmon, Obishir, Orda, Simodon, Buzurgon were analyzed. Studying these names on the basis of historical sources and comparing them with each other will be the key to uncovering many secrets hidden in this land.

One of the problems of the lexicology of the Uzbek language that needs to be researched is the study of the lexical-spiritual characteristics of toponyms and their thematic classification.

Kalit so'zlar: *Lingvomadaniy xususiyat, etnotoponim, antropotoponim, etimologik talqin, muqaddas qadamjo, ziyoratgoh, payg'ambar, avliyo, diniy e'tiqod.*

Ключевые слова: *лингвокультурный признак, этнотопоним, антропотопоним, этимологическая интерпретация, святылище, святыня, пророк, святой, религиозное верование.*

Key words: *linguistic and cultural feature, ethnotoponym, anthropotoponym, etymological interpretation, holy place, shrine, prophet, saint, religious belief.*

KIRISH

Toponimlar bir qarashda jamiyatga hududlarni ajratish, topish va belgilash uchun zaruriy ehtiyoj bo'lib ko'rinisa-da, aslida ular juda katta lingvomadaniy xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Etnotoponim va antropotoponimlar doirasida totemlar juda qadimdan katta o'rin egallab kelgan. Qadimda odamlar turli hayvon, o'simlik yoki predmetlarni muqaddaslashtirishgan, ularga sig'inishgan. Shuningdek, ilk davrlarda mahalliy xalqlarning afsonaviy tarixi va olam haqidagi mifologik tasavvurlari bilan bog'liq holda aksariyat ibodatxona, mug'xona kabilar yoki ayrim suv havzalari va qishloq nomlari turli ilohiy nomlar asosida shakllantirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilk o'rta asrlarda zardo'shtiylik dini, urf-odatlarida juda keng tarqalgan qadimiy hududlardan biri So'x (f-t. **suxtan**— **سوختن** («ёнмоқ», «куймоқ»)) [1] tumani nomining ham kelib chiqishi va etimologik talqinini, bizningcha, zardushtiylik ta'limotida muqaddas deb qaralgan «*olov*» tushunchasi bilan bog'lash mumkin. Chunonchi, bir qancha tarixchi, arxeolog, etnograflarning ma'lumotlariga qaraganda[2], qazishmalar chog'ida mazkur hududdan zardushtiylik diniga oid ko'plab ashyoviy dalillar – ular ichida eng mashhuri 1894-yilda Tul qishlog'i yaqinidagi Mug'tepa mavzesidan topilgan «*ikki boshli chipor ilon*» tumoridir – mug'tepa va mug'xonalarning topilishi ushbu fikrga kelishimizga asos bo'ladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Islom dini qabul qilinganidan so'ng muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarni, shuningdek, ayrim qishloq, tepalik nomlarini payg'ambar va avliyolar, mashhur shayx va imomlar, pirlar ismi bilan atash ko'p kuzatiladi. So'x tumanida choryorlarning to'rtinchi vakili *Hazrati Ali* nomi bilan bog'lanadigan *Hazrati Ali, Imomota, Hazrat Alining mashhur Duldul oti* bilan aloqador holda yuzaga kelgan So'x tumanidagi *Dul ota* nomli ziyoratgoh hamda qishloq nomlarining barchasi islom dini ta'sirida vujudga kelgan toponimlardir.

So'x tumani toponimiyasida diniy tushunchalar bilan bog'liq nomlar nafaqat islom madaniyati, balki undan avval vujudga kelgan juda qadim davrlar e'tiqodi va diniy qarashlarini izohlaydi.

So'x toponimiyasida but va sanamlarga e'tiqod shaklini ko'rsatuvchi bir nechta lisoniy birliklar va uning izlari saqlangan toponimlar bor. Ayniqsa, So'xda shakllangan toponimlar semantikasida but so'zi ifodalanishi ham xarakterlidir. Bu so'z but, sanam, ikonalar bilan bog'liq tarzda qadimgi kishilarning diniy qarashlari, e'tiqod va tasavvurlarini ifoda etadi. Malbut yoki Mulbut qadimda So'x vohasining eng obod va rivojlangan manzillaridan biri bo'lgan. Malbut so'zi aslida *Mulbut* bo'lib, «*mul*» - *ko'p* va «*but*» - *haykal* degan ma'noni anglatadi. Bir vaqtlar bu yerda butparastlik dini rivojlanib, ko'plab but va sanamlar yasalgan va ularga sig'inilgan [3]. Ularga bo'lgan hurmat va ishonch toponimlar shakllanishida ham kuzatiladi. Shuningdek, *Bujoy/Bo'jayning* asl shakli ham *Butjoy*, ya'ni butlar joyi, *Rovut* so'zining to'liq ifodasi esa *Rohbut*, ya'ni *but yo'li*, deb izohlanadi. Bu esa butparastlik, sanamlarga sig'inish e'tiqodining tilda qoldirgan izlari, qoldiqlaridir.

Hozirgi kunda odamlarda diniy qarashlar o'zgargan: ular but, sanamlarga sig'inmay qo'ygan. So'x tumanida ham diniy munosabatlarda odamlar asosan islom e'tiqodini tan oladilar. Bu nomlar esa baribir tarix sifatida, o'tgan davr nafasini eslatgan holda saqlanib qolgan. Ularning o'zagi tilda shu darajada singib, o'zlashib ketganki, insonlar bu nomlarning ma'nosiga, ko'pincha, e'tibor ham qaratmaydilar. Masalan, *Malbut* yoki *Rovut* so'zlarining izohidan ko'ra jamiyatdagi vazifasi (atash)ga ko'p e'tibor beriladi.

So'x daryosi Piri hamda buloq Pirlari bilan bog'liq ziyoratgohlar, *Hazrati Ali* va uning avlodlari bilan bog'liq ziyoratgohlar, *Yetti Xo'jalar* nomi bilan bog'liq ziyoratgohlar hamda

TILSHUNOSLIK

ayollar va qizlar nomi bilan bog'liq ziyoratgohlarga ajratadi. Jumladan, qadimiy diniy qarashlar bilan bog'liq ziyoratgohlarga *Sangi aro's*, *Sangi navishta*, *Oluchamazor*, *Shahi kuro'la*, *Qulfi zanjirkusho* singari toponimlar kiritilgan. So'x daryosi hamda buloq Pirlari bilan bog'liq ziyoratgoh nomlariga esa *Mazori Er-hubbi*, *Yigit Pirim*, *Sariq Ota*, *Havzi moron*, *Havzi kelinchak*, *Chashmai So'x*, *Toshmazor*, *Kichirimazor* kabilarni sanab o'tish o'rinli.

So'x tumani tarixiy qadamjolari nomlanishida Hazrati Ali bilan bog'liq qadamjolar ko'p uchraydi. Shu sababli tasnifda Hazrati Ali nomi bilan bog'liq qadamjolar nomi alohida ajratilgan. Ularga *Mazori Hazrati Ali*, *Hazrati Xuro'son (Boboi Xurosoni)*, *hazrati Bobo*, *Mazori Kenja vali* kabi ziyoratgoh nomlarini misol qilish mumkin. Yana hududning ko'p sonli ziyoratgohlari islom ta'limotida keng tarqalgan yetti pirlar va yoxud yetti xo'jalar turkumi bilan bog'liq *Xo'jai Kalon*, *Xo'jai Kabo'dpo'sh*, *Xo'jai Tush*, *Xo'jai Murodbaxsh*, *Xo'jai Ro'shnoi*, *Xo'jai Xor*, *Xo'jai Abulqosim*, *Xo'jai Orifi Mohi Tobon* kabi ziyoratgohlar kiritilgan.

Ziyoratgohlar nomlanishida ayollar va qizlar nomi bilan bog'liq qadamjolar nomlarining mavjudligi madaniyat va e'tiqodda ayollar va qizlarning bevosita o'rni borligiga ishora qiladi. So'x hududida bunday ziyoratgohlar qatoriga *Mazori Childuxtaron*, *Oluchamazor*, *Tulbibi*, *Hurbibi* qadamjolari sanab o'tilgan. Tasnifga ko'ra, muqaddas qadamjolar nomlarini tahlil etadigan bo'lsak, ular diniy e'tiqodni aks ettirishi bilan umumiylik belgisiga ega ekanligini ko'rish mumkin. *Xo'jai Kalon*, *Xo'jai Kabo'dpo'sh*, *Xo'jai Tush*, *Xo'jai Murodbaxsh*, *Xo'jai Ro'shnoi*, *Xo'jai Xor*, *Xo'jai Abulqosim*, *Xo'jai Orifi Mohi Tobon* kabi toponimlar diniy ulamolar, asosan, islom dini peshvolari nomlari esa nisbatan yaqin davr tushunchalarini aks ettirganligi sabab, ma'nosi odamlar uchun tushunarli.

Hozirgi kunda mahalla nomi sifatida ishlatilib kelayotgan nomlar orasida ham *G'oz (G'az)*, *Pidirgon*, *So'x*, *Xonaqoh*, *Xidirmon*, *Obishir*, *O'rda*, *Simodon*, *Buzurgon* nomlari o'zida diniy-falsafiy belgini saqlaydi. Jumladan, *Xonaqoh* toponimi aziz avliyolar, diniy tomondan alohida xislatlarga ega bo'lgan kishilar maskan tutgan hudud ma'nosini anglatadi. Bu nomlar hozirda mazkur ma'nosini o'zida aks ettirmaydi. Bu qadim tarix bilan bog'liq jihatlar bo'lib, ularning bugungi kunda ham joy nomi sifatida qo'llanilishining asosiy omili tarixiy voqealar asosida ochiladi. Xususan, So'x tumanida bunday e'tiborli qadamjolar, tarixiy maskanlar talaygina.

XULOSA

Diniy tushuncha ifodalovchi toponimlar har bir xalqda uchraydi. Muayyan hududning din peshvolari yoki biror diniy voqea bilan aloqadorlikda atalishi ko'pincha shu hududda yuz bergan real tarixiy voqealar asosida vujudga keladi.

So'x tumanida diniy qarashlar bilan bog'liq nomlarning ko'pligi bu hududning azaldan madaniyat markazi bo'lib kelganligidan, ko'p tarixiy hodisalarga guvoh bo'lganidan dalolat beradi. Bu nomlarning tarixiy manbalar asosida, ularni o'zaro qiyoslab o'rganish bu zaminda yashirin bo'lgan juda ko'p sirlarning ochilishida kalit bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. www.google.com//ru.m.wikipedia.org/wiki/soxskiy_rayon.
2. Джахонов У. Земледелие таджиков долины Соха в конце XIX – начале XX в. – Душанбе: Дониш, 1989. – С.15-18; Суфиев Ў. Дехвайрон андар Сухи бостон. – Тошкент: Наврӯз, 2011. – Б.16-17; Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б.25-26.
3. Ходжаева Д. Историческая география Центральной Азии по данным Авесты и пехлевийских источников. – Автореф. дисс. канд. истор. наук. – Душанбе, 2000. – С.5-8